

## O'PKANING SURUNKALI OBSTRUKTIV KASALLIGI BO'LGAN BEMORLARDA N-ASETILSISTEINNING SAMARADORLIGINI META-TAHLIL ASOSIDA O'RGANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14901359>

**A.V. Yakubov, G.N. Avazova, N.X. Abdumajidova.**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

N-asetilsistein (NAC) antioksidant ta'siri orqali o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi o'tkir hurujini kamaytirishi mumkin. Tadqiqotlarning geterogenligi tufayli, hozirgi mavjud ma'lumotlar o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi bo'lgan bemorlarda og'iz orqali NAC qabul qilish davolashning samaradorligini yetarlicha tasdiqlamaydi. O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi bo'lgan bemorlar muntazam ravishda og'iz orqali NAC qabul qilishlari davolanishning yaxshi klinik natijalarini har doim ham bermaydi.

Maqsad: Ushbu meta-tahlilning maqsadi o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi bo'lgan bemorlarda uzoq muddatli og'iz orqali NAC qabul qilish terapiyasining samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot manbalari va usullari: PubMed, Web of Science va Cochrane Library ma'lumotlar bazalari yordamida barcha kiritilgan klinik tadqiqotlarni aniqlash va adabiyotlarni qidirish orqali amalga oshirildi. 2000-yil 1-yanvardan 2024-yil 30-maygacha o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi bo'lgan bemorlarda NAC bilan davolash natijalarini platsebo ga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri solishtirildi. Agar ular quyidagi natijalardan biri yoki bir nechta haqida xabar bergan bo'lsa, ulardagi ma'lumot ushbu tadqiqotga kiritildi: o'tkir huruj kuzatilmagan bemorlarning soni, 1 sekundda jadal nafas chiqarish hajmi (JNChH1), o'pkaning tiriklik sig'imi (O'TS), "St George's Respiratory Questionnaire score" (SGRQ) baholash so'rovnomasi, glutation darajasi va nojo'ya ta'sirlar.

Natijalar: Meta-tahlilga sakkizta randomizatsiyalangan nazorat ostidagi sinovlar kiritilgan. NAC guruhida 1062 bemor va platsebo guruhida 1078 bemor bor edi. Mavjud meta-tahlil shuni ko'rsatadiki, o'tkir huruji yo'q bemorlar soni (NAC terapiyasini olgan 974 bemor, 988 nazorat guruhidagi bemorlar), FEV1 o'zgarishi (NAC terapiyasini olgan 442 bemor, nazorat guruhidagi bemorlar 449), O'TS o'zgarishi (NAC terapiyasini olgan 178 bemor, 183 nazorat guruhidagi bemorlar), "St George's Respiratory Questionnaire score" (SGRQ) baholash

so'rovnomasi natjalari (NAC terapiyasini olgan 129 bemor, 132 nazorat guruhidagi bemorlar), glutation darajasining o'zgarishi (NAC terapiyasini olgan 39 bemor, 41 nazorat guruhidagi bemorlar) va nojo'ya ta'sirlar kuzatilgan bemorlar soni (NAC terapiyasini olgan 840 bemor, 850 nazorat guruhidagi bemorlar) ikki guruh o'rtasida sezilarli darajada farq qilmadi.

Xulosa: NAC o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi bilan og'rigan bemorlarda o'tkir huruj xavfini kamaytirmadi va o'pkaning tiriklik hajmini oshirmadi.

1. Dekhuijzen PN. Antioxidant properties of N-acetylcysteine: their relevance in relation to chronic obstructive pulmonary disease. Eur Respir J 2004; 23: 629-636. - [PubMed](#)

1. Sadowska AM, Manuel-Y-Keenoy B, De Backer WA. Antioxidant and anti-inflammatory efficacy of NAC in the treatment of COPD: discordant in vitro and in vivo dose-effects: a review. Pulm Pharmacol Ther 2007; 20: 9-22. - [PubMed](#)

1. Gul M, Kutay FZ, Temocin S, et al.. Cellular and clinical implications of glutathione. Indian J Exp Biol 2000; 38: 625-634. - [PubMed](#)

1. Drost EM, Skwarski KM, Sauleda J, et al.. Oxidative stress and airway inflammation in severe exacerbations of COPD. Thorax 2005; 60: 293-300. - [PMC](#) - [PubMed](#)

1. Domej W, Oettl K, Renner W. Oxidative stress and free radicals in COPD - implications and relevance for treatment. Int J Chron Obstruct Pulmon Dis 2024; 9: 1207-1224. - [PMC](#) - [PubMed](#)